
UYDA, OILA DAVRASIDA TA'LIM

Yurtboshimiz tashabbuslari hamda Xalq ta'lim vazirligining sa'y-xarakatlari bilan Respublikamizning barcha umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari masofaviy tarzda o'z ish faoliyatlarini davom ettirmoqdalar. O'quvchilar esa televideniye, internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlar orqali ta'lim olyaptilar.



Farzandlarimizning o'qishlarini davom ettirishi uchun O'zbekiston ¹/₆ Milliy teleradiokompaniyasi bilan hamkorlikda 100 dan ortiq fidoiy pedagoglar ishtirokida televizion darslar tasvirga olinib efirga uzatilmoqda. Ular orasida davlat mukofoti

sohiblari, darslik mualliflari, yilning eng yaxshi fan o'qituvchilari ham ko'pchilikni tashkil etadi.





Mazkur jarayon tumanimizdagi 43-umumiy o'rta ta'lim maktabida izchillik bilan amalga oshirilmoqda. O'quvchilar onlayn tarzida bilim olayaptilar, o'qituvchilari esa masofaviy tarzda o'quvchilarning bilimlarini baholab, o'quv jarayonlarini kuzatib bormoqdalar.



7-"A" sinf o'quvchisi Madinaxon Mo'ydinovning kecha tomomlagan ijodidan namuna.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati